

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA

O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTET

TURIZM KAFEDRASI

“Servisda innovatsion faoliyat” fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Innovatsion faoliyat, uning asosiy

ko'rinishlari

Bajardi:3-1XS-13 guruhi talabasi Mahmudov Muhammad

Ilmiy rahbar: Tadjiyeva Sayyora

Buxoro – 2015 yil

Kurs ishi uchun taqriz

Fakultet.....	“Ijtimoiy – iqtisodiy”
Kafedra.....	“Turizm”
Fan.....	”Servisda innovatsion faoliyat”
Guruh.....	“3-1XS-13” “ Xizmatlar sohasi”
Talaba familiyasi va ismi-sharifi.....	Mahmudov Muhammad
Kurs ishi mavzusi.....	”Innovatsion faoliyat, uning asosiy ko’rinishlari”
Kurs ishining tarkibi.....	
Kurs ishi himoyasida talabaga berilgan savollar ro’yxati	
.....	
.....	
Jadval va grafik materialning miqdori.....	
Kurs ishining ijobiy tomonlari.....	
.....	
Kurs ishining kamchiliklari.....	
.....	
Kurs ishiga qo’yilgan baho.....	
Kurs ishiga rahbarning familiyasi va ismi-sharifi.....	

Mundarija:

KIRISH.....	4
 I-BOB. INNOVATSION FAOLIYAT VA UNING NAZARIY ASOSLARI	
1.1.INNOVATSIYA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА.....	6
1.2.INNOVATSION FAOLIYATNING ASOSIY KO'RINISHLARI.....	14
1.3.ILMIY – TEXNIKA VA INNOVATSIYA RESURSLARI.....	21
 II-BOB.O'ZBEKISTON SANOAT TARMOG'IDA INNOVATSIYA STRATEGIYASINI QO'LLASH VA UNI AMALGA OSHIRISH	
2.1. INNOVATSIYA - IQTISODIY QUDRATNI YUKSALTIRISH OMILI SIFATIDA.....	25
2.2. ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BANK BIZNESINING YANGI UFQLARINI OCHMOQDA.....	32
2.3.O'ZBEKISTONDA “SMS-TO'LOV” TIZIMINI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI.....	37
XULOSA.....	42
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	44
TAYANCH IBORALAR.....	45
ILOVALAR.....	46

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyat hayotida innovatsion sohaning jadal rivojlanishi iqtisodiyotda intelektual mahsulot axborot va ilmiy-texnik , innovatsion faoliyat ulushining o'sishi shunga olib keldiki innovatsiyalar xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va inteluktual salohiyat kabi mamlakatning boyligi hisoblana boshladi.

Mamlakatimiz va uning har bir fuqarosi manfaatlari yo'lida innovatsion va ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanishning mamlakatimizda ko'p tarmoqli innovatsion siyosatni shakllantirish va uni amalga oshirish uchun qonunchilik asoslari yaratmasdan turib hech ham imkon yo'q.

Bozor islohotlarining amalga oshirilishi mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga a'zo bo'lishi, jahon iqtisodiy tizimining bilimlar va axborotlar rolining o'sishi tomon o'zgarishi , yangi texnologiyalar va capital bozori o'rtaсидаги aloqalar kuchayishi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo'lliga o'tishi dolzarb ahamyat kasb etmoqda.

Innovatsion sohada strategik va taktik choralar tizimini ishlab chiqish faqat ilmiy asosda amalga oshirilishi mumkin, shu sababli faol harakat qilayotgan har bir shaxs , u qaysi faoliyat sohasida band bo'lmasin fan va texnikaning rivojlanish va umumiy qonuniyatlar yangiliklarni sarali qo'llash usullari haqida tasavvurga ega bo'lishi , yangiliklar kiritish nazariyasi innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish amaliyotini ya'ni innovatsion strategiyaning asosiy qoidalarini , shuningdek , mos keluvchi darajada innovatsion siyosatni shakllantirish va amalga oshirish xususiyatlarini bilishi zarur.

Milliy va xalqaro tajribadan ma'lumki, iqtisodiyot va jamiyatning taraqqiyot darjasini ko'p jihatdan innovatsion faoliyatga bog'liq. Binobarin, iqtisodiyotdagagi samaradorlik ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va ixtirolarning joriy etilishi evaziga oshadi. Shu bois bugungi kunda innovatsiyalar har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

Alovida qayd etish lozimki, fan sohasini takomillashtirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlar natijasida davlat ilmiy-texnika dasturlarini mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining eng dolzarb masalalarini yechishga yo‘naltirish, ilmiy-texnika loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishni boshqa davlatlarda mavjud bo‘lmagan - ochiq muhokama tarzida o‘tkazish, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya loyihalarini manfaatdor korxonalarining mablag‘larini jalb qilgan holda moliyalashtirish kabi mexanizmlar joriy qilindi.

Hozirgi kunda uzoq muddatli (5 yilgacha), yangi bilimlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan fundamental tadqiqotlar, o‘rta muddatli (3 yilgacha) amaliy tadqiqotlar hamda qisqa muddatli (2 yilgacha) innovatsion ishlanmalar Davlat ilmiy-texnika dasturlari tanlovlari asosida shakllantirilmoqda. Eng muhimi, “fundamental tadqiqotlar” - “amaliy tadqiqotlar” - “innovatsiya ishlari” zanjiri bo‘yicha mujassamlik darajasini ta'minlaydigan mexanizm ishlab chiqilib, undan samarali foydalanimoqda.

Yana shuni ham ta'kidlash joizki, mamlakatimiz Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalarga asoslangan fan va texnologiyalar taraqqiyotining 2012-2020 yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari respublikamiz iqtisodiyoti tarmoqlaridagi yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilishni, iqtisodiy rivojlanishda fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi mutanosiblikni va innovatsiya faoliyatini ustuvor rivojlantirishni nazarda tutgan holda shakllantirildi.

Bu kabi chora-tadbirlar mamlakatimizda innovatsiya sohasining o‘ziga xos tarzda rivojlanib borishini ta'minlamoqda. Agar raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2003-2006 yillar davomida 7 mingga yaqin ilmiy-texnikaviy yutuqlar ro‘yxatga olingan bo‘lsa, keyingi 5 yil oralig‘ida ulardan yana 10 mingdan ziyodi ro‘yxatlarda qayd etildi. Dunyoda birinchi bo‘lib fizika sohasida - soliton va soliton komplekslarining paydo bo‘lish mexanizmi aniqlanib, optik solitonlar nazariyasi hamda turli muhitlarda nochiziqli to‘lqinlarning tarqalishi va evolyutsiyasi nazariyasi,

matematika sohasida - kvant ehtimollar nazariyasi muammolarini yechish uchun yangi usullar yaratildi.

Innovatsiya jarayonining iqtisodiyotdagi mavqyeini belgilashda Prezidentimizning 2008 yil 15 iyuldagagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining ahamiyati alohida e’tirofga molikdir. Mazkur tarixiy hujjatga asosan ishlab chiqarishni o‘rta va qisqa muddatlarda innovatsion rivojlantirish va modernizatsiya qilish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda innovatsiya sohasida erishilayotgan yutuqlar salmog‘ini oshirishga, ushbu sohaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida “Innovatsiyalar va innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish taklifi bejizga ilgari surilmagan.

Darhaqiqat, innovatsiya faoliyatini, ya’ni ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik faoliyati, yangicha qurilma, yangi usul, yangi moddalarni yaratish va ularidan foydalanish, mavjud qurilmalar, usullarni yangicha yo‘sinda qo‘llash maqsadida intellektual faoliyatning e’tirof etilgan natijalari (patent, guvohnoma, nou-xau)ni yaratish va foydalanishga yo‘naltirish bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish tizimini yaratish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etadi.

I-BOB. INNOVATSION FAOLIYAT VA UNING NAZARIY KO'RINISHLARI

1.1.INNOVATSIYA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА

Yangilik ishlab chiqarish va boshqaruv tizimiga joriy qilingandan so'ng bozorda iste'mol qilinadigan yangi mahsulotga aylanadi va uni sotishdan iqtisodiy , ijtimoiy yoki boshqa turdagи samaralar olinadi,- u yangi toifaga –innovatsiyalarga aylanadi.

“Innovatsiya” tushunchasi birinchi bo'lib fanga Avstriyalik(keyinchalik Amerikalik) olim Yozef SHumpeter XX asrning birinchi o'n yilligida kiritilgan. U o'zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli asarida (1911) Y.SHumpeter ilk bora innovatsiya masalalarini ko'rib chiqdi va innovatsion jarayonga to'liq tavsif berdi.

Y.SHumpeter innovatsiyadagi 5 xil o'zgarishni ajratib ko'rsatdi:

- 1)yangi texnika va texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishning yangicha bozor ta'midotidan foydalanish
- 2)yangi xususiyatlarga ega bo'lган mahsulot joriy qilish
- 3)yangi xomashyodan foydalanish
- 4)ishlab chiqarishni tahlil qilish va uning moddiy-texnika ta'midotida o'zgarishlar
- 5)yangi sotuv bozorlarining paydo bo'lishi

U iqtisodiyotda innovator markaziy shaxsga aylanishini isbotlab bergen.Y.SHumpeterning fikricha innovatsiya bu – is'temol tovarlarining yangi turlari , yangi ishlab chiqarish va transport vositalari yangi bozorlar va sanoatda tashkilotlar shaklini joriy qilish va faoliyatda foydalanish maqsadidagi o'zgarishlardir.

Innovatsiyalarning bundan tashqari hozirgi kungacha bir necha ta'riflari mavjud 1- jadvalda ko'rsatib o'tilgan .

“Innovatsiyalar” tushunchasi ta’riflarining variantlari

Ta’rif	Manba
Innovatsiya –kapitalni yangi texnika yoki texnologiyaga , ishlab chiqarishni tashkil qilish mehnat , xizmat ko’rsatish va boshqaruvning yangi shakllariga, jumladan , yangicha nazorat va hisob shakllari, re’jalashtirish va tahlil usullariga kiritishdan olingan , moddiy tus olgan natijadir.	Балбанов И.Л. Инновационный менеджмент. СПб.:Питер,2001
Innovatsiya – ilmiy-tadqiqot va tajriba- konstruktorlik ishlari (ITTKI) natijalarini bozorga yetkazish.	Большой толковый словарь бизнеса М.:Вече:ACT,1998
Innovatsiya (yangiliklar kiritish)- yangi mahsulot turlari, texnologiyalar ishlab chiqarish, yaratish va tarqatishga, yangi tashkiliy shakllar joriy qilishga yo’naltirilgan ijodiy faoliyat natijasi.	Борисова.Б. Большой экономический словарь М.:Книжный мир,2000
Innovatsiya – intelektual mahsulot – ixtiro ,axborot, nou – xau yoki g’oya iqtisodiy mazmunga ega bo’ladigan jarayon	БрайнТ.Управление научно-техническими нововведениями. М.:Экономика,1989
Innovatsiya – bozorga mavjud taklif bilan ta’minlanmagan ehtiyojlarni qondiradigan mahsulot olib chiqishga qodir bo’lgan , maxsus ishlab chiqilgan texnologiyaga asoslangan yangi mahsulot	Валдайцев С.В. Оценка бизнес и инновации. М.:Филлин,1997

liniyasini o'zlashtirish	
Innovatsiya – ishlab chiqarish mexanizmining boshlang'ich strukturasidagi o'zgarish, ya'ni uning ichki strukturasi yangicha holatga o'tishi; mahsulot, texnologiya, ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchining professional va malakaviy strukturasiga taalluqli; ham ijobiy, ham salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga ega bo'lган o'zgarishlar	Валента Ф. Управление инновациями. М.:Прогресс,1985
Innovatsiya - tizim sifatida korxona faoliyatidagi maqsadli o'zgarish (korxona faoliyatining istalgan sohasida sifat va son o'zgarishlari	Волдачек Л. Стратегия управления инновациями на предприятии. М.:Экономика,1989
Innovatsiya – yangi ijtimoiy ehtiyoj (yoki ma'lum bo'lган ehtiyojni yaxshiroq qondirish) uchun yangi amaliy vosita (yangilik) yaratish , tarqatish va undan foydalanish kompleksli jarayoni; shu bilan bir paytda bu – ushbu yangilik bilan uning hayotiylik davri yakunlanadigan ijtimoiy va buyum holatidagi muhitda bog'liq bo'lган o'zgarishlar jarayoni	Гвишиани Д.М. Диалектико-материалистические основания системных исследований // Диалектика системный анализ. М.:Наука,1986
Innovatsiya – ITTKI, marketing va boshqaruv sohalarining o'zaro aloqalari natijasi	Гольдштейн Г.Я. Инновационный менеджмент // www.aup.ru/books/

Innovatsiya - boshqaruv ob'ektini o'zgartirish va iqtisodiy' ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik va boshqa turdag'i samara olish maqsadida yangilikni joriy qilishning yakuniy natijasi	Ильенкова С.Д. Инновационный менеджмент:учебник М.:ЮНИТИ, 1997
Innovatsiya - jamiyat hayotining u yoki bu sohasida faoliyat jarayoni yoki uning natijalarini takomillshtirishga yo'naltirilgan intelektual (ilmiy-texnik) faoliyat natijalaridan foydalanish	Инновационный менеджмент: учеб.пособие. СПб.: Наука,2000
Innovatsiya - amaliyotda qo'llanadigan hamda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy talablarni qoniqtiradigan , mos keluvchi sohalarda samara beradigan ilmiy ixtiro yoki kashfiyotlar	Канторович Л.В. системний анализ и некоторме проблемн научно-технического прогресса: Диалектика и системний анализ. М.: Наука,1986
Innovatsiya – o'tkazilgan ilmiy tadqiqot amalga oshirilgan kashfiyot natijasida ishlab chiqarishga joriy qilingan , oldingilardan tamomila farq qiladigan ob'ekt	Медынский В.Г. менеджмент: учебник. М.:ИНФРА-М,2002
Innovatsiya – sifat jihatidan yangi qarorlarni amaliyotga tatbiq etish , korxona strategiyasining mazmuni va strategiya mohiyati	Раппопорт В. Диагностика управления: практический опыт и рекомендации. М.: Экономика,1988
Innovatsiya - ijtimoiy, texnik , iqtisodiy jarayon, o'z	Санто Б. Инновация как средство

xususiyatlari bo'yicha yaxshiroq mahsulot vat exnologiyalar yaratishga olib keladigan ixtiro va g'oyalardan amaliy foydalanish, iqtisodiy foyda va qo'shimcha daromad olishga yo'naltiriladi , tadqiqot loyihalardan tortib to marketinggacha bo'lgan barcha faoliyat turlarini qamrab oladi	экономического развития. М.:Прогресс,1990
Innovatsiya –boshqaruv ob'ektini o'zgartirish hamda iqtisodiy , ijtimoiy , ekologik, ilmiy-texnik yoki boshqa turdag'i samara olish maqsadida yangiliklar joriy qilishning yakuniy natijasi	Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. СПб.:Питер,2004

1-jadvalda keltirilgan ta’riflarni tahlil qilib , umumlashtirgach quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1.Ob’ektlar, tizimlar,korxonalar va butun jamiyatning bir holatdan boshqa holatga , yanada mukammal va yangiliklar kiritishni nazarda tutadigan holatga o’tishi bo’yicha cheksiz sonly muayyan vaziyatlar cheksiz sonly ifoda va ta’riflar bo’lishiga imkon yaratadi.

2.Yanada mukammalroq holatga o’tishda yangiliklar – o’ylab topish, ishlab chiqish va ixtiro qilish lozim bo’lgan yangi vositalar , usullar , mahsulotlar, texnologiyalar ko’zda tutiladi.

3.Innovatsiya yangi bilimlarning amalga oshirilgan yig’indisi sifatida amaliy qo’llanishi mos keluvchi sohalarda samara berishi lozim.

Xalqaro standartlarga muvofiq **INNOVATSIYA** (yangilik kiritish) bozorda joriy qilingan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot , amaliy faoliyatda foydalanimadigan yangi yoki takomillashgan texnologik jarayon ko’rinishida yoki ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuvda namoyon bo’ladigan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi sifatida tavsiflanadi.

Yangi g’oya izlab topishning asosiy usllari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin :

- Sinov va xatolar usuli
- Nazort savollari usuli
- Aqliy hujum
- Morfologik tahlil
- Sinektika
- Yeti karra izlash strategiyasi
- Ixtirochilik masalalarini hal qilish usuli.

2- jadval

Innovatsiyalar tasnifi

Yangilik kiritish turi va qo'llanilish sohasi	Texnologik Texnik Mahsulot Tashkiliy Ijtimoiy Iqtisodiy Ekologik Axborot Konsturuktorlik Maxsus va b.
Ishlab chiqarish va tarqatish	Davlat Respublika Mintaqaviy Tarmoq Korporativ Firma
Xalq xojaligi tarmog'iga jalb qilish	Fan sohasi Ta'lim sohasi Ijtimoiy-madaniy soha Moddiy ishlab chiqarish sohasi
Moliyalashtirish manbasi	O'z mablag'lari Qarz mablag'lari Davlat tomonidan moliyalashtirish Aralash moliyalashtish
Miqyosi va ta'sir etish kengligi	Global Tarmoq Lokal
Qo'llanish sohasi va predmeti	Mahsulot Bozor Jarayon
Innovatsiyalar qo'llanadigan joy va soha	"Kirish"da "CHiqish"da Ichki iste'mol uchun innovatsiyalar Sotish uchun innovatsiyalar
Innovatsion menejment tizimida innovatsiyalarni joriy qilish quyi tizimi	Ilmiy jo'rlik Maqsadli Ta'minlaydigan Boshqariladigan Boshqaradigan
Ishlab chiqish va	Sanoat

qo'llanish sohasi	Moliyaviy Ilmiy-pedagogik Savdo-vositachilik Tashkily-boshqaruv Ijtimoiy-iqtisodiy Maxsus va b.
Ijtimoiy ishlab chiqarish omili	Ishchi kuchi Ishlab chiqarish vositasi Mehnat predmeti Mohiyat mahsuli Mehnat jarayoni

1.2. INNOVATSION FAOLIYATNING ASOSIY KO'RINISHLARI

Innovatsion faoliyat – yakunlangan ilmiy tadqiqot va loyihibar natijalari yoki boshqa ilmiy-texnik yutuqlarni (fan-texnika yutuqlarini) yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotga; bozorda sotiladigan, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga, shuningdek, shu bilan bo'g'liq qo'shimcha ilmiy tadqiqot va loyihalarga joriy qilishga yo'naltirilgan jarayondir.

2006 yil 7 avgustdaggi “Fan va texnologiyalar rivojlanishning muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori va 2007 yil 7 sentyabrdagi “Innovatsiya ilmiy-texnika dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining, O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Qarorida quyidagi ta'rif taklif etiladi: ”Innovatsion faoliyat – yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon

yaratish, ishlab chiqarishda o'zlashtirish va amaliy qo'llash bo'yicha ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish".

Innovatsion faoliyat qatoriga quyidagi faoliyat turlarini kiritish mumkin:

- Amaliyotda qo'llash uchun mo'ljallangan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot , yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yaratish bo'yicha ilmiy – tadqiqotchilik, tajriba- konstruktorlik yoki texnologik ishlar bajarish;
- Yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot chiqarish, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon joriy qilish uchun ishlab chiqarishni tayyorlash va texnologik qayta jihozlash;
- Yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni sinab ko'rishni amalga oshirish;
- Xarajatlar o'zini oqlashiga qadar yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon qo'llash, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish;
- Yangi mahsulotni bozor tomon harakatlantirish bo'yicha faoliyat;
- Innovatsion infratuzilma yaratish va rivojlantirish;
- Innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- Sanoat mulki obyektlari yoki maxfiy ilmiy – texnik axborotlarga egalik huquqini boshqalarga berish yoki xarid qilish;
- Yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot , texnologik jarayon yaratish va amaliyotda qo'llash bo'yicha ekspertiza , maslahat, axborot, yuridik va boshqa xizmatlar ko'rsatish;
- Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni tashkil etish.

Innovatsion faoliyat subyektlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar;

- Innovatsiyalarni amalga oshiruvchi turli mulkchilik shaklidagi innovatsion korxonalar;
- Innovatsion faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan intellectual mulk egalari:korxona loyihalari, qurilmalar, sanoat namunalari, texnologik jarayonlar, “nou-xau”, kashfiyot va ixtiolar mualliflari, dizaynerlar;
- Innovatsiyalar amalga oshirishda kapital kirituvchi investorlar: banklar, fondler, korporatsiyalar, lizing firmalari va b.;
- Innovatsion jarayonga xizmat ko’rsatadigan va uning infratuzilmasini ta’minlaydigan vositachilar:konsalting va injiniring firmalari, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, texnopolislar, axborot markazlari va b.;
- Innovatsion faoliyatni boshqarish , muvofiqlashtirish va tartibga solishda ishtirok etadigan davlat organlari va mahalliy o’zini-o’zi boshqarish organlari.

Subyektlar o’rtasida ular borasida iqtisodiy va huquqiy munsabatlar vujudga keladigan innovatsion faoliyat mahsulotlari quyidagilar hisoblanadi:

- Muayyan innovatsiyalarni o’zlashtirish natijalari va texnologiyalarni belgilab beradigan innovatsion loyihalar;
- Yakuniy mahsulotni sotishda ijtimoiy – iqtisodiy va ekologik samarani ta’minlaydigan texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishda o’zlashtirish;
- Fan-texnika yutuqlarining natijasi hisoblangan tamomila yangi va yaxshilangan mahsulotlar.

Innovatsion faoliyat deb ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmat sifatini oshirish nomenklaturasini kengatirish va yangilash, ularni tayyorlash texnologiyasini oshirish takomillashtirish va istiqbolda o’zlashtirish hamda ichki va tashqi bozorlarda samarali realizatsiya etish maqsadida ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalarining ishlatilishi va tijoratlashuviga aytildi.Innovatsion faoliyat o’zida bir qator ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlarini qamrab olib, ular bir butunlikda innovatsiyalarga aylanadi.

Innovatsion faoliyatning asosiy ko’rinishlari quyidagilardir:

- Ishlab chiqarishni tayyorlash va tashkil etish. U o’z ichiga yangi texnologik jarayonniyaratish uchun zarur bo’lgan ishlab chiqarish asbob-uskunasi, vositalari hamda ulardagi o’zgarishlarni, shuningdek, ishlab chiqarish va sifat nazorati jarayonlari, metodlari va standartlaridagi yangiliklarni qo’lga kiritishni qamrab oladi.
 - Ishlab chiqarish oldi tadbirlari.Ularga mahsulot yoki texnologik jarayon modifikatsiyasi, yangi texnologiya va asbob – uskunani qo’llash maqsadida xodimlarni qayta tayyorlash ishlari kiradi.
 - Yangi mahsulotlar markretinggi. U yangi mahsulot sotuvi bilan bog’liq bo’lgan bozorni boshlang’ich o’rganish , mahsulotlarni turli bozorlarga moslashtirish, reklama kompaniyasini o’tkazish kabi faoliyat turlarini ifodalaydi.
 - Chetdan nomoddiy texnologiyani qo’lga kiritish. Ular patent , litsenziya, nou-xau, savdo belgilari, konstruksiya, modellar va texnologik mazmundagi xizmatlar shaklida bo’lishi mumkin.
 - Moddiy texnalogiyani qo’lga kiritish. Texnologik mazmuniga ko’ra innovatsion korxonada mahsulot yoki jarayon innovatsiyalarini tadbiq etish bilan bog’liq bo’lgan mashina va asbob-uskunalarni xarid qilishni bildiradi.
 - Ishlab chiqarishni loyihalashtirish. Mazkur faoliyat ishlab chiqarish jarayonlarini va texnologik tadbirlarni aniqlash maqsadida reja va chizmalarini tayyorlashga yo’naltiriladi.
- Innovatsion faoliyatning poydevori ilmiy-texnik faoliyat bo’lib, u fan va texnikaning barcha sohalarida ilmiy-texnik bilimlarni yaratish, rivojlantirish, tarqatish va amalda qo’llash nazarda tutiladi. Ilmiy-texnik faoliyat tushunchasi YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, fan va texnika statistikasida xalqaro standartlarning muhim kategoriyasi hisoblanadi. YUNESKO tavsiyalariga muvofiq , ilmiy-texnik faoliyat statistika obyekti sifatida uch ko’rinishda namoyon bo’ladi:
- Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar;
 - Ilmiy-texnik ta’lim va kadrlar tayyorlash;
 - Ilmiy texnik xizmatlar.

Ilmiy-texnik faoliyatni amalga oshirishda ilmiy ishlar mashtabi tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi, quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- Ilmiy- texnik yo'nalish-mustaqlil xarakterdagi yirik ilmiy ish bo'lib, fan va texnikaning muayyan tarmog'ining muhim vazifalarini yechishga bag'ishlanadi. Ilmiy yo'nalishiga yechim toppish qator ilmiy tashkilotlar sa'i – harakatlari bilan amalga oshadi.
- Ilmiy-texnik muammo – ilmiy-texnik yo'nalishning bir qismi bo'lib, yo'nalish yechimining yo'llaridan birini bildiradi. Ilmiy ish maqsadli ilmiy texnik dastur ko'rinishida yechilishi mumkin va unda resurslar, ijrochilar, ijro muddatlari kabilar aks ettiriladi.
- Ilmiy mavzu – ilmiy tashkilot doirasida hal etilayotgan muammoning bir qirrasi. U qoida bo'yicha , moliyalashtirish,rejalashtirish va ish hisobotlarida asosiy birlik sifatida ishtirok etadi. Mavzu maqsadi - patent yoki iqtisodiy ishlar tadqiqotlari aniq vazifasini samarali yechishdir. Mavzu murakkabligiga bog'liq ravishda bosqichlar va ost bosqichlarga bo'linishi mumkin.

1.3.ILMIY – TEXNIKA VA INNOVATSIYA RESURSLARI.

Ilmiy-texnika va innovatsion salohiyat mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega omillardan hisoblanadi. Xususan, islohotlar davrida yuzaga kelgan ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni hal etishda davlat ilmiy-texnika va innovatsiya siyosatining roli ortib bormoqda.

Iqtisodiyotning ilmtalab tarmoqlarini rivojlantirish , yalpi ichki mahsulotning ilmiy sig'imini oshirish, qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni keng o'zlashtirish jarayonlarida ilmiy-texnika va innovatsion resurslaridan oqilona va yuqori darajada foydalanish muhim va dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ilmiy salohiyat bu fundamental ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari va resurslarining yig'indisidan iboratdir.

Ilmiy – texnika salohiyati esa amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni, xususan, tajriba-konstrukturlik va tajriba texnologik ishlarni amalga oshirish shart-sharoitlari va resurslarning yig'indisidir.

Innovatsion salohiyat ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning amalda, jumladan ishlab chiqarishda qo'llanilishini ta'minlashga xizmat qiladigan shart-sharoitlar va resurslarning yig'indisi hisoblanadi.

Ilmiy, ilmiy – texnika va innovatsion salohiyat ishlab chiqarish vositalari va usullarining samaradorligini oshirishni ta'minlaydi, yangi texnologiyalar va mahsulotlarning o'zlashtirilishini jadallashtiradi.

Ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsion salohiyat bir-birini taqozo etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lib, ilmiy-innovatsion jarayonning alohida bo'ginlari hisoblanadi. Yangi, ilg'or g'oyalarning tug'ilishi, fundamental tadqiqotlar, amaliy tadqiqotlar, tajriba konstrukturlik ishlari va tajriba texnologik ishlanmalar, tajriba namunasi, sanoat xarakteridagi sinovlar, ishlab chiqarishning o'zlashtirilishi, yangi mahsulotning amalda keng qo'llanilishi jarayonlari yagona ilmiy-texnika taraqqiyotining uzviy bir-biriga bog'liq bosqichlaridan iboratdir.

Mana shu jarayonni boshqarish, tartibga solish va qo'llab quvvatlash maqsadida davlat ilmiy – **texnika va innovatsiya siyosatini** amalga oshiradi. Bu siyosatning alohida yo'naliishlari O'zbekiston Republikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalar markazi, O'zbekiston Republikasi Fanlar Akademiyasi, Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Fundamental va amaliy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga salmoqli hissa qo'sha oladigan ilmiy-texnika faoliyatining ustuvor yo'naliishlarini belgilash, ilmtalab, resurslar, energiya va mehnat xarajatlari kam bo'lgan ishlab chiqarish va texnalogiyalarni jadal rivojlantirishga imkon beruvchi ilmiy tadqiqotlarda ustuvorlik berish, ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsion faoliyatning bevosita ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi bilan bog'liqligini yuqori darajada ta'minlash, ilmiy-texnika va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan boshqarishda ko'proq iqtisodiy

usullardan foydalanish, sohaga xorijiy invaestitsiyalarning kirib kelishini rag'batlantirish kabilar davlat ilmiy-texnika siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Innovatsion va fan-texnika siyosatining maqsadi mamlakatning milliy inovatsion tizimini shakllantirish, tanlab olingan rivojlanish strategiyasiga muvofiq mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi aniq amalga oshirishdan iborat. Bu siyosatdoirasida dinamik rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotiga mos keluvchi , mamlakatning resurslar imkoniyati va barqaror rivojlanish strategiyasiga to'la mos keladigan ilmiy , ilmiy-texnika va texnologik salohiyatni shakllantirish muhim rol o'ynaydi.

Ko'rsatib o'tilgan strategik maqsad qo'shimcha maqsadlarga erishish yo'li bilan quyidagilar amalga oshiriladi:

- Iqtisodiyotning rivojlanishi va muhim ijtimoiy vazifalarining hal etilishiga fan va texnika hissasini oshirish;
- Fan-texnika salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish;
- Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ilg'or tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash;
- Ishlab chiqarish samaradorligini va mahsulot raqobatdoshligini oshirish;
- Ekologik vaziyat va resurslar saqlanishini yaxshilash;
- Mamlakatning mudofaa qobiliyati, shaxs, jamiyat va davlat xavsizligini mustahkamlash;
- Jamiyatda fanning nufuzini oshirish;
- Fan va ta'lim o'rtaсидаги aloqalarni mustahkamlash.

II –bob. O’ZBEKISTON BANK TARMOG’IDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI QO’LLASH VA UNI AMALGA OSHIRISH YO’LLARI

2.1. Innovatsiya - iqtisodiy qudratni yuksaltirish omili sifatida

Har qanday iqtisodiyotni, ayniqsa, uning muhim tarmog‘i bo‘lgan sanoat sohasini taraqqiy toptirish yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo qiladi. Chunki, bu mahsulot yoki xizmatning ichki va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta’minlovchi omildir.

Shu bois hozirgi vaqtida ilmiy ishlanmalardan foydalanishning samaradorlik darajasini oshirish, fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish masalasining dolzarbliji yanada kuchaymoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq milliy qonunchilikni yaratishda aynan shu jarayonning huquqiy asoslariga bo‘lgan e’tibor alohida o‘rin tutdi. Zero, o’sha kezlarda qabul qilingan Fuqarolik, Jinoyat, Soliq kodekslarining intellektual mulkka oid normalari, shuningdek, “Ixтиrolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi, “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi, “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi, “EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi, “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunlar ushbu sohaning ravnaqiga munosib hissa qo‘sib kelmoqda.

Pirovardida, ro‘yxatga olingan ilmiy-texnikaviy yutuqlar soni yil sayin oshib bormoqda. Shunday ilmiy-texnikaviy yutuqlar sirasiga dunyoda birinchi bo‘lib yarim nodir minerallarga atom reaktorining neytron va kobalt-60 izotopining gamma nurlari orqali ishlov berib, minerallarni to‘la nodirlashtirish texnologiyasi ishlab chiqilganligini mammuniyat bilan misol qilib keltirish mumkin. Bu kabi natijalar fuqarolarimizning Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan ilmiy-texnikaviy ijod erkinligidan keng foydalanishi mahsuli bo‘lib, ayni vaqtida mamlakatimizning

iqtisodiy qudratini yuksaltirishga, jahon hamjamiyati oldidagi mavqyeini oshirishga xizmat qilayotgani bilan ham e'tirofga molikdir.

Milliy va xalqaro tajribadan ma'lumki, iqtisodiyot va jamiatning taraqqiyot darjasи ko'п jihatdan innovatsion faoliyatga bog'liq. Binobarin, iqtisodiyotdagi samaradorlik ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va ixtirolarning joriy etilishi evaziga oshadi. Shu bois bugungi kunda innovatsiyalar har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

Alohida qayd etish lozimki, fan sohasini takomillashtirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlar natijasida davlat ilmiy-texnika dasturlarini mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining eng dolzarb masalalarini yechishga yo'naltirish, ilmiy-texnika loyihalarini ekspertizadan o'tkazishni boshqa davlatlarda mavjud bo'lmagan - ochiq muhokama tarzida o'tkazish, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya loyihalarini manfaatdor korxonalarining mablag'larini jalb qilgan holda moliyalashtirish kabi mexanizmlar joriy qilindi.

Hozirgi kunda uzoq muddatli (5 yilgacha), yangi bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan fundamental tadqiqotlar, o'rta muddatli (3 yilgacha) amaliy tadqiqotlar hamda qisqa muddatli (2 yilgacha) innovatsion ishlanmalar Davlat ilmiy-texnika dasturlari tanlovlari asosida shakllantirilmoqda. Eng muhimi, "fundamental tadqiqotlar" - "amaliy tadqiqotlar" - "innovatsiya ishlari" zanjiri bo'yicha mujassamlik darajasini ta'minlaydigan mexanizm ishlab chiqilib, undan samarali foydalanimoqda.

Yana shuni ham ta'kidlash joizki, mamlakatimiz Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalarga asoslangan fan va texnologiyalar taraqqiyotining 2012-2020 yillarga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari respublikamiz iqtisodiyoti tarmoqlaridagi yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilishni, iqtisodiy rivojlanishda fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi mutanosiblikni va innovatsiya faoliyatini ustuvor rivojlantirishni nazarda tutgan holda shakllantirildi.

Bu kabi chora-tadbirlar mamlakatimizda innovatsiya sohasining o‘ziga xos tarzda rivojlanib borishini ta'minlamoqda. Agar raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2003-2006 yillar davomida 7 mingga yaqin ilmiy-texnikaviy yutuqlar ro‘yxatga olingan bo‘lsa, keyingi 5 yil oralig‘ida ulardan yana 10 mingdan ziyodi ro‘yxatlarda qayd etildi. Dunyoda birinchi bo‘lib fizika sohasida - soliton va soliton komplekslarining paydo bo‘lish mexanizmi aniqlanib, optik solitonlar nazariyasi hamda turli muhitlarda nochiziqli to‘lqinlarning tarqalishi va evolyutsiyasi nazariyasi, matematika sohasida - kvant ehtimollar nazariyasi muammolarini yechish uchun yangi usullar yaratildi.

Innovatsiya jarayonining iqtisodiyotdagি mavqyeini belgilashda Prezidentimizning 2008 yil 15 iyuldagи “Innovatsion loyihibar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining ahamiyati alohida e’tirofga molikdir. Mazkur tarixiy hujjatga asosan ishlab chiqarishni o‘rta va qisqa muddatlarda innovatsion rivojlantirish va modernizatsiya qilish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda innovatsiya sohasida erishilayotgan yutuqlar salmog‘ini oshirishga, ushbu sohaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida “Innovatsiyalar va innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish taklifi bejizga ilgari surilmagan.

Darhaqiqat, innovatsiya faoliyatini, ya’ni ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik faoliyati, yangicha qurilma, yangi usul, yangi moddalarni yaratish va ulardan foydalanish, mavjud qurilmalar, usullarni yangicha yo‘sinda qo’llash maqsadida intellektual faoliyatning e’tirof etilgan natijalari (patent, guvohnoma, nou-xau)ni yaratish va foydalanishga yo‘naltirish bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish tizimini yaratish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etadi.

Shu o‘rinda innovatsiya faoliyatini huquqiy tartibga solishning bugungi kundagi zarurati xususida ayrim fikrlarni bildirish joiz. Bular mahalliy ishlab

chiqaruvchilar, ilmiy-texnik muassasalar tomonidan yaratilgan innovatsiyalar va innovatsion loyihalarning shartnomaviy tartibini qonuniy jihatdan mustahkamlash, yaratilgan yangi innovatsiyalar, yangi texnologiyalar, yangi usullarning huquqiy maqomini belgilash, ilg‘or innovatsion fikrlashni tarbiyalaydigan ta’lim tizimini ham huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yishdir. Shuningdek, chet eldan yangi texnologiyalarni, innovatsion ishlanmalarning olib kirilishiga keng imkoniyatlar yaratish va bunda xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mamlakat iqtisodiy rivojlanishida alohida o‘rin tutishidan kelib chiqib, innovatsiyalarni chet eldan jalb etishga nisbatan huquqiy talablarni yaratish, bundan tashqari, innovatsiya faoliyati sub'yeqtalarining huquqiy maqomini belgilash va ular faoliyati hamda huquqlari kafolatining asoslarini o‘rnatish, innovatsiya dasturlariga homiylik qilish va davlat tomonidan ko‘mak berishning huquqiy vositalarini ishlab chiqish kabilardir.

Ishlab chiqilayotgan “Innovatsiyalar va innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonun loyihasi mamlakatimiz manfaatlariga mos ravishda innovatsiyalar va innovatsion faoliyat tushunchalarini, innovatsiya faoliyati ob'yeqtleri va sub'yeqtalarini, ularning vakolatlari, huquq va majburiyatlarini, faoliyat turlarini, bu boradagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini, innovatsion tashkilot va infratuzulmalarni, innovatsiyalar va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish kabi normalarni o‘z ichiga olishi zarur, deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, innovatsiya loyihalarni amalga oshirishda davlat tomonidan beriladigan kreditlar, grantlar, ko‘maklarning huquqiy asoslarini yaratish ham dolzarb hisoblanadi. Bunda, ayniqsa, innovatsiya faoliyatini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim. YUqorida qayd qilingan vazifalarni amalga oshirish va milliy innovatsion tizimni rivojlantirish huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi milliy innovatsion tizimning strategik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi va kelgusida mamlakatimizda innovatsiyalar va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslari

yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi, mamlakatimizning iqtisodiy qudratini bundan-da yuksaltirish istiqbollarini belgilab beradi, degan fikrdamiz.

2.2. ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BANK BIZNESINING YANGI UFQLARINI OCHMOQDA

Bank tizimida innovatsion axborot texnologiyalarini keng ko‘lamda tadbiq etish mamlakatimizda qisqa muddatda milliy to‘lov tizimini shakllantirishga imkoniyat yaratdi. Xo‘jalik yurituvchi sub'yektlar o‘rtasida hisob-kitoblarni aniq vaqt rejimida amalga oshiruvchi bu tizim mamlakatimiz moliya bozori barqarorligini ta'minlamoqda. Bundan tashqari u davlatimiz pul-kredit siyosatini samarali yuritish, milliy va xalqaro to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish, pul oqimlarini boshqarishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda milliy to‘lov tizimi negizida Markaziy bankning yagona banklararo to‘lov tizimi, 29 ta tijorat bankining ichki to‘lov tizimlari, shuningdek, bank kartalari bo‘yicha barcha tijorat banklarini qamrab olgan “Uz-Kart” banklararo chakana to‘lov tizimi, aholidan uyali aloqa xizmati, communal va boshqa to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha “Uz-Paynet” to‘lov agentlik tarmog‘i hamda “SMS-TO’LOV” chakana to‘lov tizimlari faoliyat yuritmoqda.

Tijorat banklari kuchli, ishonchli va yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan platformalar asosida axborot texnologiyalari yutuqlarini bank faoliyatiga dadillik bilan tadbiq qilib, ular asosida mukammal dasturlar yaratib, axborot tizimlari infrastrukturasini rivojlantirmoqda. Bu o‘z navbatida, mamlakatimiz banklari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini kuchaytirish, an'anaviy bank xizmatlari sifatini oshirish, yangi xizmatlarni joriy etishga yo‘naltirilgan ishlarni muttasil davom ettirishga da‘vat etmoqda. Mijozlar safini kengaytirish uchun taqdim etayotgan xizmatlari ro‘yxati muntazam ravishda kengaytirilib, tijorat banklari turli moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatuvchi, ta‘bir joiz bo‘lsa, o‘ziga xos “supermarket” larga aylanib bormoqda.

Mazkur ishlarning samarasi o‘laroq, 2014 yil 1 may holatiga respublikamiz bo‘yicha qariyb 44 mingdan ziyod xo‘jalik yurituvchi sub'yektlar “Bank-Mijoz” va Internet-banking dasturiy majmualari xizmatlaridan foydalanib kelmoqda. Mijozlar masofadan turib, kompyuter va elektron aloqa tizimi orqali bank operatsiyalarini amalga oshirmoqdalar.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining joriy etilishi mamlakatimiz bank xizmatlari bozori kengayishiga sharoit yaratmoqda. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan sari tijorat banklari ham chakana operatsiyalar, mijozlarga taqdim etadigan xizmatlar turlarini oshirish orqali o‘z faoliyatini diversifikatsiya qila bormoqdalar.

Masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatishni bankomat va infokiosklarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Foydalanishi sodda bo‘lgan ushbu uskunalar bugungi kunda mijoz va kassir o‘rtasidagi an'anaviy muomalaga chek qo‘yib, o‘ziga xos minibank-ofis vazifasini o‘tamoqda. Hozirgi paytda bankomatlardan nafaqat naqd pul yechib olish, balki ular orqali tovar va xizmatlar bo‘yicha turli to‘lovlarни amalga oshirish mumkin. Shuni qayd etish o‘rinliki, mijozlar istalgan bank bankomat va infokiosklaridan foydalana oladilar. Ayni paytda respublikamiz bo‘yicha “Smart-Vista” on-line va “DUET” tizimidagi kartochkalarga xizmat ko‘rsatadigan bankomat va infokiosklar soni 1466 tani tashkil etib, ular yagona tarmoqqa ulangan.

2013 yilda respublikamizda muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 9,7 mln. donani tashkil etdi. Plastik kartochkalar soni ko‘payishiga mos ravishda terminallar soni ham oshib bordt. Aholi gavjum bo‘lgan joylar va savdo do‘konlari, xizmat ko‘rsatish ob'yektlariga o‘rnatilgan terminallar soni shu yil boshiga kelib salkam 116 mingtani tashkil etdi.

Plastik kartochkalar yordamida amalga oshirilayotgan operatsiyalar turi va soni ham sezilarli darajada o‘sib bormoqda. O‘tgan yili plastik kartochkalar vositasida salkam 8,7 trln. so‘m hajmida har xil naqd pulsiz to‘lovlar o‘tkazildi yoki ushbu ko‘rsatkichning yil davomida 50 foiz o‘sishi ta’minlandi.

Naqd pulsiz to‘lovlar hajmining o‘sish dinamikasi birinchi navbatda, tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarning bankomatlar orqali amalga oshirilishi, plastik kartalar vositasida ko‘rsatilayotgan xizmatlar ko‘lami va infrastrukturasining kengayishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

To‘lovlarni naqd pulsiz amalga oshirishning innovatsion shakllariga bo‘lgan ehtiyoj muttasil ortib bormoqda. Tadbirkorlik sub'yektlari va aholi tejamli, kam vaqt va harakat sarflagan, yuqori axborot texnologiyalaridan foydalangan holda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, ma'lumot olishga ko‘proq ishtiyоq bildirmoqda. Mana shu ehtiyojni inobatga olib, tijorat banklari masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirishga, bunda global Internet tarmog‘i imkoniyatlardan samarali foydalanish choralarini ko‘rib bormoqdalar. Aytib o‘tish o‘rinlik, ayni yo‘nalish jahon bank tizimi va uning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan milliy bank tizimining ustivor yo‘nalishilaridan biriga aylandi.

Ayni paytda barcha tijorat banklari Internet tarmog‘ida o‘zlarining web-saytlarini ochib, ular bank faoliyati, yangi xizmat turlari va shartlari, mijozlar manfaatiga tegishli ma'lumotlar bilan muntazam boyitib borilmoqda. Markaziy bank veb-sayti orqali esa davlat interaktiv xizmatlari ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan.

Aholi o‘rtasida mobil telefonlardan foydalanishning kengayib borishi banklar tomonidan mobil-banking (wap-banking) va sms-banking xizmatlari yo‘lga qo‘yilishiga olib keldi. Hozirgi paytda 107 mingta mijoz ayni xizmat turlaridan foydalanmoqda. Aytish o‘rinlik, shu yilning birinchi choragida banklarning ayni xizmat turlaridan foydalanuvchilar soni 50 foiz o‘sishiga erishildi.

Ma'lumot uchun aytib o‘tamiz, hozirgi kunda “Uz-Paynet” to‘lov agentligi tarmog‘i orqali bir kunda o‘rtacha 2,5-3 mln. tranzaksiyalar o‘tkazilmoqda.

Shuningdek, 2011 yilda o‘z faoliyatini boshlagan “SMS-TO’LOV” chakana to‘lov tizimi orqali 20 dan ortiq to‘lovlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tizimga tijorat banklari to‘lov tizimi a’zosi sifatida ulangan.

Matbuot anjumani chog‘ida jurnalistlarga elektron tijorat, kredit va debet kartalar, depozitlar va boshqa qulayliklar, zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatishni takomillashtirish borasida olib borilayotgan izlanishlar bo‘yicha axborotlar berildi. Xulosa o‘rnida qayd etish joizki, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari (bank-mijoz, internet-banking, mobil-banking, sms-banking va boshqalar)ni respublika miqyosida doimiy kengaytirib borish bo‘yicha ishlar barcha banklar tomonidan tizimli amalgalashishga oshirilishi milliy bank tizimining rivojlanish tendensiyalaridan guvohlik beradi va respublika iqtisodiyotida bozor mexanizmlarining mustahkamlanishiga sharoit yaratadi.


3- jadval

2013-2014 yillarda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, terminallar, bankomat va infokiosklar soni¹

	muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari soni	Shundan				
2013 yil 1 yanvar	9 502 626	Jismoniy shaxslarning plastik kartalar	Yuridik shaxslarning korporativ kartalari	Yakka tartibdagi tadbirkorlarning lozimiy kartalari	Banklar tomonidan ornatalgan terminallar soni	Banklar tomonidan ornatalgan bankomat va infokiosklar soni
2014 yil 1 yanvar	11 067 812	9 465 899	24 807	11 920	112 712	1 417
		11 020 180	31 349	16 283	129 679	1 733


¹ <http://www.cbu.uz> ma'lumota asosida muallif tomonidan xisoblangan

2013-2014 yillarda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalar soni



1-chizma. 2013-2014 yillarda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalar soni

2013-2014 yillarda banklar tomonidan о‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokioskalar soni



2-chizma. 2013-2014 yillarda banklar tomonidan о‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokioskalar soni

4 - jadval

**2015 YIL 1 YANVAR HOLATIGA MUOMALAGA CHIQARILGAN BANK
PLASTIK KARTOCHKALARI TERMINALLAR, BANKOMAT VA
INFOKIOSKLAR TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT**

Banklar	muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari soni	Banklar tomonidan o‘rnatilgan terminallar son	Banklar tomonidan o‘rnatilgan bankomat va infokioskalar son	2014 yil davomida terminallar orqali amalga oshirilgan to’lovlar summasi (mln.so’m)
<i>TIF Milliy bank</i>	2 107 728	17 901	244	2 484 619
<i>Sanoatqurilishbank</i>	942 100	8 967	33	1 063 294
<i>Agro bank</i>	2 760 824	24 347	133	2 921 865
<i>Mikrokreditbank</i>	692 425	10 702	33	1 170 090
<i>Xalq banki</i>	2 164 993	22 745	92	2 809 165
<i>Savdogarbank</i>	213 941	4 916	18	708 476
<i>Qishloq-qurilish banki</i>	353 557	7 378	27	1 372 213
<i>Turon bank</i>	205 791	2 786	33	501 413
<i>Hamkor bank</i>	207 834	8 400	277	1 366 532
<i>Asaka bank</i>	1 326 059	9 951	73	1 579 116
<i>Ipak yo‘li banki</i>	399 224	6 187	85	816 918
<i>O‘zbekiston- Turkiya banki</i>	12 500	74	0	7 850
<i>Trast banki</i>	99 121	2 375	105	471 841
<i>Aloqa bank</i>	214 081	4 462	39	715 293

<i>Ipoteka bank</i>	1 253 935	17 553	89	2 757 470
<i>O'zKDB bank</i>	48 425	196	3	47 932
<i>Turkiston bank</i>	10 153	575	2	75 215
<i>Universal bank</i>	34 341	660	3	112 030
<i>Kapital bank</i>	216 431	3 187	550	597 600
<i>Ravnaq bank</i>	8 774	99	0	26 430
<i>Davr bank</i>	33 999	1 987	0	249 359
<i>INVEST FINANCE BANK</i>	40 511	1 333	6	154 084
<i>ASIA ALLIANCE BANK</i>	56 176	1 008	9	393 585
<i>HI-TECH BANK</i>	5 404	8	2	15 124
<i>ORIENT FINANS BANK</i>	41 103	993	14	341 161
<i>JAMI</i>	13 449 430	158 790	1 870	22 758 725

2015 yilga kelib respublikamiz bo'yicha salkam 14 mln dona plastik kartochka muomalaga chiqarilgan. Elektron hamyondan to'lovlarni uzlusiz qabul qilish uchun tijorat banklari tomonidan 163 mingdan oshiq chakana savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari to'lov terminallari bilan ta'minlandi. To'lov terminallarini chekka hududlardagi chakana savdo va xizmat ko'rsatish ob'yektlariga ham o'rnatish, eskilarini yangisi bilan almashtirish choralar ko'rib borilmoqda. Aholi gavjum joylarda 2 mingga yaqin ko'pfunksiyali infokiosk va bankomatlar o'rnatildi.

Plastik kartochka egalari undan universal to'lov vositasi sifatida foydalanib, kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va maishiy mahsulotlar, pullik, shuningdek, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni har qanday masofadan turib, istalgan vaqtida

amalga oshirishlar mumkin. Bunday qulaylik savdo va servis sohalaridan tushumlardagi ulushni 50 foizga yetkazish, oxirgi besh yil mobaynida esa butun to‘lovlar hajmini 3 marta oshishiga sharoit yaratdi. Ta’kidlash o‘rinligi, hozirgi paytda har oyda o‘rtacha 1,8 trln so‘mdan ortiq tovarlar va xizmatlar, shuningdek, 187 mlrd so‘m miqdoridagi kommunal to‘lovlar elektron tizimlar orqali amalga oshirilmoqda.

Qayd etish lozimki, bugungi kunda ish haqi va ijtimoiy to‘lovlarining bir oyda o‘rtacha 50 foizdan ortig‘i plastiklarga tushirib berilmoqda va zarur hollarda, mijozlarning talabiga ko‘ra, bank cassalaridan naqd pulda berib borilmoqda.

Plastik kartochka infratuzilmasining kengayib borishidan yuridik shaxslar va yakka tartibdagи tadbirkorlar ham manfaat topmoqda. Bugungi kunda 73 mingdan oshiq tadbirkorlik tuzilmasi o‘zlarining ichki xo‘jalik ehtiyojlari uchun tovar va xizmatlarni sotib olish hamda xizmat safari xarajatlari bo‘yicha tezkor hisob-kitoblarni amalga oshirmoqdalar. Korporativ kartalar xo‘jalik sub'yektlariga dam olish kunlari yoki bank ish kunidan tashqari paytda ham terminallar orqali to‘lovlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Banklar faoliyatida innovatsion texnologiyalarning dadil joriy etilishi bu nafaqat banklarning mijozlar uchun raqobatini anglatadi, bu bank faoliyat yuritayotgan ijtimoiy va ish muhitini yangicha fikrlashga da‘vatdir. Plastiklarning muomalaga kiritilishi bilan yangi xizmatlar turlarini joriy etishga, mijozlar bilan yangicha tusda muomala qilishga imkoniyat yaratildi va bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar soni ortib borishiga sharoit hozirlamoqda. Joriy yilning 1 aprel holatiga ko‘ra, 64 mingdan oshiq mijozlar internet-banking va “bank-mijoz” dasturiy majmuasi xizmatlaridan, 530 mingdan ziyyod mijoz mobil-banking va sms-banking xizmatlaridan foydalanmoqda.

Plastik kartochkalardan foydalanish infratuzilmasini yanada kengaytirish maqsadida hozirgi paytda Markaziy bank tomonidan “Chakana to‘lovlarini real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko‘rsatuvchilarining billing tizimi bilan integrallashuvi” loyihasining ikkinchi bosqichi amalga

oshirilmoqda. Birinchi bosqichda Markaziy bank huzurida Hisob-kitob bankini tashkil etish va bank mijozlarining majburiyatlari bo'yicha banklarning vakillik hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash mexanizmi yo'lga qo'yildi.

Loyihaning ikkinchi bosqichida Kliring tizimi bilan Davlat soliq qo'mitasi axborot tizimi, "O'zbekenergo" va "O'ztransgaz" aksiyadorlik kompaniyalari, "Beeline" mobil aloqa operatorining billing tizimlari integratsiya qilinib, soliq va boshqa majburiy to'lovlar, elektr va gaz iste'moli bo'yicha to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Hozirgi paytda Kliring tizimi faoliyatini kengaytirish uchun "O'ztelekom", "Uzonline", "Uzmobile", "Ucell", "Perfectum Mobile" telekommunikatsiya korxonalari, "Suvsoz", "Issiqlik quvvati", "Maxsustrans" unitar korxonalari billing tizimlari bilan ulanish borasida tegishli ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan Moliya vazirligi bilan birgalikda byudjet tashkilotlari ishchi-xizmatchilarining ish haqi qaydnomalarini UzASBO dasturidan foydalangan holda xizmat ko'rsatuvchi bankda ochilgan Uzcard EMV plastik kartalariga elektron shaklda yuborish imkonini beruvchi yangi tizim yaratilmoqda.

2.3.O'ZBEKISTONDA "SMS-TO'LOV" TIZIMINI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

"SMS-To'lov" tizimi O'zbekiston Respublikasining "Elektron to'lovlar to'g'risidagi" Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida elektron tijoratni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun ishlab chiqildi. "SMS-To'lov" ning ustuvorligi uning yordamida istalgan turdag'i mobil aloqa, Internet shuningdek SMS vositasida naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish mumkinligidir.

Bu tizim yordamida ozingizning bank plastik kartochkangizdagi mablag'lardan maksimal imkoniyatda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lasiz. "SMS-To'lov" tizimi orqali turli xildagi tovar va xizmatlar uchun onlayn to'lovlarni amalga oshirishingiz mumkin. Buning uchun bir marotaba xizmat

ko'rsatuvchi tijorat bankiga o'zingizning passport va mobil telefoningiz bilan tashrif buyurishingiz va "SMS-To'lov" tizimida ro'yxatdan o'tishingiz lozim. Bank xodimi bir necha daqqaq ichida Sizni va sizning mobil telefon raqamingizni tizimda ro'yxatdan o'tkazib, mobil telefoningizga mahsus ilova o'rnatadi hamda Sizga qat'iy sir tutishingiz lozim bo'lgan unikal login va parol taqdim etadi. Bu Sizning mobil telefoningiz bank plastik kartochkangizga ulanganini bildiradi. Xozirgi kunda o'zimizning mobil telefonimizdan aloqa, foto kamera yoki mp3 qurilmasi sifatida foydalanishga ko'nikib qolganmiz, lekin to'lov vositasida sinab ko'rmaganmiz. Bank tomonidan o'rnatilgan mobil ilova yordamida Internet aloqasisiz bir necha soniya ichida istalgan turdag'i Tovar va hizmatlar uchun to'lov amalga oshirishingiz mumkin. "SMS-To'lov" tizimidan foydalangan holda quyidagi xizmat turlari uchun to'lov amalga oshirish mumkin:

- Mobil aloqa xizmatlari - Beeline, Ucell, Perfectum Mobile,
- Internet provayderlar xizmatlari - Sarkor ADLS, Ars-Inform, TPS, Buzton, Sharq telekom,
- Kommunal xizmatlar – elektrenergiyasi, yer va mulk solig'i.

«SMS-TO'LOV» naqd pulsiz to'lovlar tizimi – bu mijozlar va kompaniya o'rtaqidagi, mijozlar bank hisoblaridan elektron to'lovni amalga oshiruvchi bank avtomatlashtirilgan to'lovlarlarni boshqarish tizimi bilan birlashtirilgan to'lovlar protsessing tizimi.

Ushbu tizim oddiy fuqarolar uchun nimasi bilan qulay?

«SMS-TO'LOV» tizimining ustunliklarini yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu tizim Shaxsiy kabinet orqali yoki Mobil ilova orqali SMS- xabarlar jo'natish yordamida naqd pulsiz to'lovlarlarni amalga oshirish imkonini taqdim etadi. «SMS-TO'LOV» tizimi foydalanuvchilar uchun to'lovlar qabul qilish punktlarini izlash zarurati yo'q. Barcha to'lovlar SMS yordamida amalga oshiriladi, oson, qulay, qiyinchiliklar yuzaga keltirmaydi. «SMS-TO'LOV» bir necha soniyada to'lovni amalga oshirish imkonini beradi, bu esa yana vaqtini maksimal tejashni nazarda tutadi. Foydalanuvchilar bank shaxsiy hisoblarida mavjud bo'lgan pul

mablag‘laridan maksimal foydalanadilar. Va nihoyat, «SMS-TO’LOV» - kun davomida 24 soat, haftasiga 7 kunda kafolatli to‘lovlardir.

«SMS-TO’LOV» tizimi qaysi moliya tuzilmalari bilan hamkorlik qiladi?

Biz «O‘zbekiston Milliy Banki», «Hamkorbank», «AKB Mikrokreditbank», «Asaka» Banki, «Universalbank» va «Infinbank» kabi bir necha tijorat banklar bilan shartnomalar imzolaganmiz.

«SMS-TO’LOV» o‘z foydalanuvchilariga qanday imkoniyatlar taqdim etadi?

«SMS-TO’LOV» tizimidan foydalanganda mobil aloqa, internet, soliqlar, sug‘urta, elektron savdolarda ishtirok etish (birja shartnomalarini, internet-magazinlar to‘lovini amalga oshirish va shu kabilar) kabi xizmatlar uchun haq to‘lashni amalga oshirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi, bundan tashqari kommunal xizmatlar, shahar telefoniyasi uchun haq to‘lash, raqamli televideniye uchun haq to‘lash, avia- va temir yo‘l biletlarini band qilish va haq to‘lash; mehmonxona xizmatlari va nihoyat barcha servis xizmatlariga haq to‘lash tizimini tatbiq etish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga chakana savdoni ham qamrab olishni rejalashtirmoqdamiz. Bugungi kunda tarmoq katta sur’atlarda rivojlanmoqda va biz iste’molchilarimizda xizmatlarimizga haqiqatan ham ehtiyojlar mavjudligini ko‘rmoqdamiz. «SMS-TO’LOV» tizimi o‘z istemolchilarini oxir-oqibat naqd pul ehtiyojidan xalos qiladi.

«SMS-TO’LOV» tizimi xizmatidan foydalanib, bank plastik kartangiz pul mablag‘laridan maksimal foydalanish imkonini bo‘ladi.

«SMS-TO’LOV» tizimi orqali o‘z mobil telefoningizga hamda ko‘plab turdagи tovar va xizmatlarga onlayn to‘lov amalga oshirishingiz mumkin. Buning uchun siz birmarta tijorat bankiga tashrif buyurishingiz kerak bo‘ladi («O‘zbekiston Milliy Banki», «Hamkorbank», «Asaka» bank, «Universalbank», «Infinbank» «АКБ Микрокредитбанк»). Bu yerda pasport, o‘z mobil telefoningizni taqdim etishingiz kerak. Bank xodimi bir necha daqiqa davomida

«SMS-TO’LOV» tizimida sizni ro‘yxatga kiritadi, sizning mobil telefoningizgi Java ilovasini yuklaydi va alohida login va parol taqdim etadi, ularni siz qattiq sir saqlashingiz kerak bo‘ladi. Bu sizning mobil telefoningiz bank plastik kartochkasi hisob raqamiga ulanganligini anglatadi. Ushbu bank plastik kartochkasi bo‘lmagan taqdirda sizga hisob raqami ochiladi, uni siz naqd pul bilan hamda istagan boshqa bank plastik kartochkasi orqali to‘ldirib borishingiz mumkin bo‘ladi.

www.smst.uz saytida 5 ta raqami tanlab ularni keyinchali to‘ldirib borishingiz hamda shaxsiy kabinetda o‘z to‘lovlaringizni (tranzaktsiyalarni) ko‘zdan kechirishingiz mumkin.

Mobil ilova yordamida Internet resurslardan foydalanmasdan bir necha soniya ichida turli xil tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishingiz mumkin:

- Mobil kompaniyalar xizmati.
- Kommunal xizmatlar.
- Internet provayderlar xizmatlari.
- Savdo-sanoat palatasi xizmatlari.
- Tizimda to‘lov uchun test sinovlari o‘tkaziladigan xizmatlar va tovarlar:
- Shahar jamoat transporti.
- Shahar telefon aloqasi.
- Soliqlar.
- Sug‘urta.
- Avia va temir yo‘l biletlarini band qilish va to‘lash.
- Mehmonxona xizmatlari.
- Taksi xizmatlari.

Xulosa

O'zbekiston iqtisodiyotidamilliy servis sohasining roli va ahamyati salmoqli bo'lib , davlat mustaqilligiga erishilgandan keyin bu sohada tub xo'jalik- iqtisodiy , tashkiliy- institutsional va tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Har qanday iqtisodiyotni, ayniqsa, uning muhim tarmog'i bo'lgan sanoat sohasini taraqqiy toptirish yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo qiladi. Chunki, bu mahsulot yoki xizmatning ichki va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi omildir.

Shu bois hozirgi vaqtida ilmiy ishlanmalardan foydalanishning samaradorlik darajasini oshirish, fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish masalasining dolzarbliyi yanada kuchaymoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq milliy qonunchilikni yaratishda aynan shu jarayonning huquqiy asoslariga bo'lgan e'tibor alohida o'rinn tutdi. Zero, o'sha kezlarda qabul qilingan Fuqarolik, Jinoyat, Soliq kodekslarining intellektual mulkka oid normalari, shuningdek, "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi, "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi, "EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi, "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunlar ushbu sohaning ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Pirovardida, ro'yxatga olingan ilmiy-texnikaviy yutuqlar soni yil sayin oshib bormoqda. Shunday ilmiy-texnikaviy yutuqlar sirasiga dunyoda birinchi bo'lib yarim nodir minerallarga atom reaktorining neytron va kobalt-60 izotopining gamma nurlari orqali ishlov berib, minerallarni to'la nodirlashtirish texnologiyasi ishlab chiqilganligini mammuniyat bilan misol qilib keltirish mumkin. Bu kabi natijalar fuqarolarimizning Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan ilmiy-texnikaviy ijod erkinligidan keng foydalanishi mahsuli bo'lib, ayni vaqtida mamlakatimizning

iqtisodiy qudratini yuksaltirishga, jahon hamjamiyati oldidagi mavqyeini oshirishga xizmat qilayotgani bilan ham e'tirofga molikdir.

Milliy va xalqaro tajribadan ma'lumki, iqtisodiyot va jamiatning taraqqiyot darajasi ko‘p jihatdan innovatsion faoliyatga bog‘liq. Binobarin, iqtisodiyotdagi samaradorlik ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va ixtirolarning joriy etilishi evaziga oshadi. Shu bois bugungi kunda innovatsiyalar har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi;
- 2) I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtiodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari"."O'zbekiston"- 2009 yil
- 3) I.A.Karimov "Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya vaisloh etishdir", -T.: "O'zbekiston", 2005 yil
- 4) I.A.Karimov :"Vatanimizning bosqichma- bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash- bizning oily maqsadimiz", -T.: "O'zbekiston", 2008 yil.
- 5) Goncharenko L.P, Arutyunov Yu.A. Innovatsionnaya politika. Uchebnik.- M.:KNORUS,2010 yil.
- 6) Ishmuxammedov A.E., Abdusattarova X.M Akabirova D.N. Innovatsion strategiya: -T.:MVSSO RUz, 2007 yil
- 7) Изотова М. А., Матюхина Ю. А. Инновации в социокультурном сервисе и сервисе. М. 2009 г.
- 8)
- 9) www.sbu.uz
- 10) www.bank.uz
- 11) www.gov.uz
- 12) www.tta.uz
- 13) www.ziyokor.uz
- 14) www.cfin.uz
- 15) www.stat.uz
- 16) www.lex.uz
- 17) www.mf.uz
- 18) www.worlbankgroup.org
- 19) <http://smst.uz/site/>
- 20) <http://www.cbu.uz/uzc/main>

Tayanch iboralar

ILOVALAR

**2013 ЙИЛ 1 ЯНВАРЬ ҲОЛАТИГА МУОМАЛАГА ЧИҚАРИЛГАН БАНК ПЛАСТИК КАРТОЧКАЛАРИ,
ТЕРМИНАЛЛАР, БАНКОМАТ ВА ИНФОКИОСКЛАР ТҮҒРИСИДА МАЪЛУМОТ (ВИЛОЯТЛАР
МИҚЁСИДА)**

	Муомалага чиқарилган пластик карталар сони	Шундан			Банклар томонидан ўрнатилган банкомат ва терминалларинфокиоскалар сони	Банклар томонидан ўрнатилган бономат
		Жисмоний шахсларнинг пластик карталари	Юридик шахсларнинг корпоратив карталари	Якка тартибдаги тадбиркорларнинг корпоратив карталари		
Худудлар						
Қорақалпоғистон Рес.	784 259	783 402	604	253	5 814	47
Андижон	628 291	626 709	749	833	7 855	52
Бухоро	574 960	573 303	932	725	6 392	75
Жиззах	331 735	330 665	552	518	4 577	25
Қашқадарё	796 392	795 461	671	260	7 793	46
Навоий	463 132	460 592	650	1 890	5 773	70
Наманган	543 837	542 970	509	358	6 120	74
Самарқанд	703 210	701 625	891	694	8 969	107

Сурхондарё	540 146	539 424	391	331	5 254	62
Сирдарё	284 527	284 127	342	58	3 364	27
Тошкент	533 431	530 302	1 561	1 568	10 006	56
Фарғона	885 193	883 667	992	534	10 802	126
Хоразм	413 008	411 925	789	294	5 744	43
Тошкент ш.	2 020 505	2 001 727	15 174	3 604	24 249	607
ЖАМИ	9 502 626	9 465 899	24 807	11 920	112 712	1 417

**2014 ЙИЛ 1 ЯНВАРЬ ҲОЛАТИГА МУОМАЛАГА ЧИҚАРИЛГАН БАНК ПЛАСТИК КАРТОЧКАЛАР,
ТЕРМИНАЛЛАР, БАНКОМАТ ВА ИНФОКИОСКЛАР ТҮҒРИСИДА МАЪЛУМОТ**

Худудлар	Муомалага чиқарилган пластик карталар сони	Шундан				Банклар томонидан ўрнатилган терминаллар сони	Банклар томонидан ўрнатилган банкомат ва инфокиоскалар сони
		Жисмоний шахсларнинг пластик карталари	Юридик шахсларнинг корпоратив карталари	Якка тартибдаги тадбиркорларнинг корпоратив карталари	Банклар томонидан ўрнатилган терминаллар сони		
Қорақалпоғистон Рес.	624 813	623 158	989	666	7 094	51	
Андижон	697 352	695 411	982	959	8 850	123	
Бухоро	798 230	795 803	1 343	1 084	7 718	102	
Жиззах	366 031	364 581	787	663	5 199	27	
Қашқадарё	996 249	994 742	955	552	9 681	58	
Навоий	526 970	523 500	842	2 628	6 615	85	
Наманган	705 076	703 898	760	418	7 147	92	
Самарқанд	843 945	841 844	1 162	939	10 337	120	

Сурхондарё	654 701	653 574	606	521	6 693	82
Сирдарё	321 845	321 298	416	131	3 702	28
Тошкент	625 707	621 548	2 088	2 071	11 852	68
Фарғона	1 045 792	1 044 014	1 149	629	11 383	155
Хоразм	456 746	455 296	1 056	394	6 076	58
Тошкент ш.	2 404 355	2 381 513	18 214	4 628	27 332	684
ЖАМИ	11 067 812	11 020 180	31 349	16 283	129 679	1 733

**2015 ЙИЛ 1 ЯНВАРЬ ҲОЛАТИГА МУОМАЛАГА ЧИҚАРИЛГАН БАНК ПЛАСТИК КАРТОЧКАЛАР,
ТЕРМИНАЛЛАР, БАНКОМАТ ВА ИНФОКИОСКЛАР ТҮҒРИСИДА МАЪЛУМОТ**

Худудлар	Муомалага чиқарилган пластик карточкалари сони	Банклар томонидан ўрнатилган терминаллар сони	Банклар томонидан ўрнатилган банкомат ва инфокиоскалар сони	2014 йил давомида терминаллар орқали амалга оширилган тўловлар суммаси (млн. сўмда)
Коракалпогистон Рес.	755 129	8 890	50	1 251 753
Андижон	854 874	10 927	113	1 461 802
Бухоро	887 506	10 331	92	1 546 762
Жиззах	438 549	6 222	32	676 002
Кашкадарё	1 179 747	11 579	64	1 898 848
Навоий	589 363	7 979	89	1 130 160

Наманган	862 386	8 425	102	1 228 102
Самарканд	1 094 277	13 482	127	1 804 744
Сурхондарё	766 253	8 927	92	1 205 816
Сирдарё	363 812	4 555	31	450 368
Тошкент	827 733	14 131	70	1 885 646
Фаргона	1 306 171	13 994	153	1 985 482
Хоразм	559 091	7 073	58	849 013
Тошкент ш.	2 964 539	32 275	797	5 384 233
ЖАМИ	13 449 430	158 790	1 870	22 758 725

**2013 ЙИЛ 1 ЯНВАРЬ ҲОЛАТИГА МУОМАЛАГА ЧИҚАРИЛГАН БАНК ПЛАСТИК КАРТОЧКАЛАРИ,
ТЕРМИНАЛЛАР, БАНКОМАТ ВА ИНФОКИОСКЛАР ТҮҒРИСИДА МАЪЛУМОТ (ТИЖОРАТ БАНКЛАР
МИҚЁСИДА)**

Банклар	Муомалага чиқарилган пластик карталар сони	Шундан			Банклар томонидан ўрнатилган терминаллар сони	Банклар томонидан ўрнатилган банкомат ва инфокиоскалар сони
		Жисмоний шахсларнинг пластик карталари	Юридик шахсларнинг корпоратив карталари	Якка тартибдаги тадбиркорларнинг корпоратив карталари		
ТИФ Миллий банк	1 558 466	1 551 151	5 875	1 440	14 159	239
Саноатқурилишбанк	867 635	866 254	1 356	25	6 513	34
Агро банк	1 952 145	1 951 614	462	69	17 820	131
Микрокредитбанк	439 543	439 265	278		6 920	33
Халқ банки	1 440 171	1 437 494	1 104	1 573	17 770	96

Савдогарбанк	154 726	154 216	320	190	3 483	19
Қишлоқ-қурилиш банки	224 045	223 628	415	2	4 496	27
Турон банк	150 730	149 335	884	511	2 269	20
Хамкор банк	109 995	107 657	1 176	1 162	4 901	41
Асака банк	972 411	970 634	1 179	598	8 889	72
Ипак йўли банки	250 938	247 881	1 796	1 261	3 763	35
Ўзбекистон-Туркия банки	10 163	9 968	183	12	89	
Траст банки	58 990	57 788	1 015	187	1 161	16
Алоқа банк	128 750	127 975	707	68	2 865	39
Ипотека банк	865 725	858 636	3 448	3 641	12 312	89
Ўзқдб банк	31 562	31 325	237		165	3
Туркистон банк	4 828	4 689	87	52	339	2
Самарқанд банк	1 035	1 011	22	2	90	
Универсал банк	24 027	23 830	131	66	565	
Капитал банк	125 630	122 626	2 343	661	1 834	494

Равнақ банк	3 748	3 603	114	31	48	
Давр банк	5 501	5 427	49	25	385	
Кредит-Стандарт банк	69 028	68 388	563	77	528	11
INVEST FINANCE BANK	18 626	18 179	360	87	487	3
AMIRBANK	8 189	8 059	98	32	123	1
ASIA ALLIANCE BANK	14 407	14 168	223	16	217	7
HI-TECH BANK	4 533	4 218	222	93	183	2
ORIENT FINANS БАНК	7 079	6 880	160	39	338	3
ЖАМИ	9 502 626	9 465 899	24 807	11 920	112 712	1 417

**2015 ЙИЛ 1 ЯНВАРЬ ҲОЛАТИГА МУОМАЛАГА ЧИҚАРИЛГАН БАНК ПЛАСТИК КАРТОЧКАЛАРИ
ТЕРМИНАЛЛАР, БАНКОМАТ ВА ИНФОКИОСКЛАР ТҮГРИСИДА МАЪЛУМОТ**

Банклар	Муомалага чиқарилган пластик карточкалари сони	Банклар томонидан ўрнатилган терминаллар сони	Банклар томонидан ўрнатилган банкомат ва инфокиоскалар сони	2014 йил давомида терминаллар орқали амалга оширилган тўловлар суммаси (млн. сўмда)
ТИФ Миллий банк	2 107 728	17 901	244	2 484 619
Саноатқурилишбанк	942 100	8 967	33	1 063 294
Агро банк	2 760 824	24 347	133	2 921 865
Микрокредитбанк	692 425	10 702	33	1 170 090
Халқ банки	2 164 993	22 745	92	2 809 165
Савдогарбанк	213 941	4 916	18	708 476
Кишлoқ-қурилиш банки	353 557	7 378	27	1 372 213
Турон банк	205 791	2 786	33	501 413
Ҳамкор банк	207 834	8 400	277	1 366 532
Асака банк	1 326 059	9 951	73	1 579 116

Ипак йўли банки	399 224	6 187	85	816 918
Ўзбекистон-Туркия банки	12 500	74	0	7 850
Траст банки	99 121	2 375	105	471 841
Алоқа банк	214 081	4 462	39	715 293
Ипотека банк	1 253 935	17 553	89	2 757 470
ЎзКДБ банк	48 425	196	3	47 932
Туркистон банк	10 153	575	2	75 215
Универсал банк	34 341	660	3	112 030
Капитал банк	216 431	3 187	550	597 600
Равнақ банк	8 774	99	0	26 430
Давр банк	33 999	1 987	0	249 359
INVEST FINANCE BANK	40 511	1 333	6	154 084
ASIA ALLIANCE BANK	56 176	1 008	9	393 585
HI-TECH BANK	5 404	8	2	15 124
ORIENT FINANS БАНК	41 103	993	14	341 161
ЖАМИ	13 449 430	158 790	1 870	22 758 725

**2014 ЙИЛ 1 ЯНВАРЬ ҲОЛАТИГА МУОМАЛАГА ЧИҚАРИЛГАН БАНК ПЛАСТИК КАРТОЧКАЛАР,
ТЕРМИНАЛЛАР, БАНКОМАТ ВА ИНФОКИОСКЛАР ТҮҒРИСИДА МАЪЛУМОТ**

Банклар	Муомалага чиқарилган пластик карталар сони	Шундан			Банклар томонидан ўрнатилган терминаллар сони	Банклар томонидан ўрнатилган банкомат ва инфокиоскалар сони
		Жисмоний шахсларнинг пластик карталари	Юридик шахсларнинг корпоратив карталари	Якка тартибдаги тадбиркорларнинг корпоратив карталари		
ТИФ Миллий банк	1 758 252	1 750 265	6 323	1 664	14 714	243
Саноатқурилишбанк	885 159	883 433	1 698	28	6 984	34
Агро банк	2 380 093	2 378 578	989	526	20 830	134
Микрокредитбанк	574 366	572 411	1 216	739	9 250	33
Халқ банки	1 517 092	1 513 593	1 477	2 022	19 623	94
Савдогарбанк	180 803	180 137	398	268	3 963	19
Қишлоқ-қурилиш банки	284 858	284 073	639	146	5 455	27
Турон банк	171 337	169 511	1 163	663	2 437	20
Ҳамкор банк	144 723	141 948	1 387	1 388	5 756	296
Асака банк	1 174 544	1 172 465	1 382	697	9 018	73

Ипак йўли банки	320 694	316 915	2 195	1 584	4 752	35
Ўзбекистон-Туркия банки	11 330	11 122	190	18	74	0
Траст банк	78 480	77 010	1 237	233	1 735	47
Алоқа банк	180 384	179 380	887	117	3 670	39
Ипотека банк	1 037 635	1 028 640	4 356	4 639	15 009	89
ЎзКДБ банк	36 897	36 642	255		190	3
Туркистон банк	7 271	7 032	135	104	481	1
Самарқанд банк	1 075	1 058	16	1	19	0
Универсал банк	29 192	29 049	98	45	580	0
Капитал банк	172 937	168 722	3 313	902	2 221	529
Равнақ банк	6 208	5 932	227	49	94	0
Давр банк	15 259	14 911	259	89	870	0
INVEST FINANCE BANK	28 110	27 569	426	115	695	3
AMIRBANK	9 914	9 831	56	27	42	1
ASIA ALLIANCE BANK	37 471	37 015	425	31	500	8
HI-TECH BANK	5 596	5 213	263	120	181	2
ORIENT FINANS БАНК	18 132	17 725	339	68	536	3
ЖАМИ	11 067 812	11 020 180	31 349	16 283	129 679	1 733

